

Xalqaro hamkorlik natijalari

Slovakiya davlatining Nitra Qishloq Xo'jaligi Universiteti bilan ilmiy hamkorlikni yanada rivojlantirish, ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan hamkorlik shartnomasi bo'yicha TIQXMMI "Gidravlika va gidroinformatika" kafedrasida tomonidan vebinar tashkil etildi. Ushbu vebinarda "Gidravlika va gidroinformatika" kafedrasida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borayotgan Slovakiya davlatining Nitra Qishloq Xo'jaligi Universiteti doktori Tatyana Kaletova "Slovakiyada suv resurslaridan foydalanish" mavzusida ma'ruba qildi. Vebinarni "Gidromelioratsiya" fakulteti dekani A.M.Fatxulloev olib bordi. Ma'ruzada 80 dan ortiq institut professor-o'qituvchilari, doktorantlar hamda yosh tadqiqotchilar ishtiroy etdilar.



Slovakiya davlatining Nitra Qishloq Xo'jaligi Universiteti doktori Tatyana Kaletova o'zining ma'rurasida Slovakiya davlati va uning tarixi, iqlim sharoiti va tabiiy resurslari haqida, Slovakiyada qishloq xo'jaligi va suv xo'jaligida suv resurslaridan foydalanish to'g'risida qiziqarli ma'lumotlar berdi. Ushbu tashkil etilgan vebinarda tinglovchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarni berdilar va doktor Tatyana Kaletova ularga batafsil javob berdi.



Vebinar tinglovchilarning ma'ruzadan Slovakiya davlati haqida, ularning suv resurlaridan samarali foydalanish uchun olib borayotgan ishlari haqida juda yaxshi ma'lumotlarga ega bo'lganliklari, vebinarni mazmunli tashkil etilganligi haqidagi bildirgan fikr-mulohazalari bilan yakunlandi.

TIQXMMI matbuot xizmati